

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/30.12.2019.V.12.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

CHALABOYEV SHAXOBIDDIN ABDUSAMATOVICH

**BUTASAL, NUKLEOPEPTID VA MIOSTA-H PREPARATLARINING
QORAKO‘L QO‘YLAR ORGANIZMIGA QIYOSIY TA‘SIRI**

**16.00.04 –Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar–sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Chalaboyev Shaxobiddin Abdusamatovich

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining qorako'l qo'ylar organizmiga
qiyosiy ta'siri.....3

Чалабоев Шахобиддин Абдусаматович

Сравнительное воздействие препаратов Бутасал, Нуклеопептид и Миоста-Н
на организм каракульских овец.....23

Chalaboev Shakhobiddin Abdusamatovich

Comparative effect of the preparations Butasal, Nucleopeptide and Miosta-H
on the body of karakul sheep.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/30.12.2019.V.12.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

CHALABOYEV SHAXOBIDDIN ABDUSAMATOVICH

**BUTASAL, NUKLEOPEPTID VA MIOSTA-H PREPARATLARINING
QORAKO‘L QO‘YLAR ORGANIZMIGA QIYOSIY TA‘SIRI**

**16.00.04 - Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar–sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/V142 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Farmonov Nizam

veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Salimov Yunus

veterinariya fanlari doktori, professor

Yuldashev Soatboy Jiyanbayevich

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "3" 05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-33-20; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14340 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-33-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil "21" 04 dagi № 1 - raqamli reestr bayonnomasi).



X.B.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
biol.f.d., professor

S.B.Eshbo'riyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyo aholisini ekologik jihatdan toza va sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hayvonlarni turli xil patologiyalari katta muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, hayvonlarda tabiiy rezistentlik hamda yosh hayvonlarning o'sish-rivojlanishdan qolishi, mahsuldorlikning pasayishi natijasida chorvachilik, qorako'chilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Ushbu muammolarni samarali hal qilishda import o'rnini bosadigan, mahalliy xom ashyolardan, ekologik jihatidan xavfsiz veterinariya dori moddalari, xususan biopreparatlarni ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va jadal rivojlantirishga ehtiyoj ortmoqda. Biologik faol moddalar hayvonlar organizmiga murakkab ta'sir ko'rsatib moddalar almashinuvini kuchaytiradi, markaziy asab tizimi faoliyatini tiklaydi hamda immunobiologik xususiyatlarini, organizmni qayta tiklanish qobiliyatini va turli patogen omillarga chidamliligini oshirish xususiyatiga ega¹. Shu boisdan biostimulyatorlarni ishlab chiqish va keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda veterinariya amaliyoti uchun biostimulyatorlarni ishlab chiqarish, ularni hayvonlarning organizmiga farmakologik ta'sirini o'rganish hamda hayvonlardan olinadigan mahsulotlarning sifatini veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqliligini baholash bo'yicha yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Biostimulyatorlar asosan yosh hayvonlarni o'sish va rivojlanishini tezlashtirishda hamda mahsuldorligini oshirishda juda keng ko'lamda foydalanilib kelinmoqda. Bu borada hayvonlar organizmida kuzatiladigan turli yuqumli va yuqumsiz, immun tizimida va reproduktiv organlarda yuzaga keladigan patologik jarayonlarni oldini olish bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda chorvachilikni innovatsion texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish, yuqori mahsuldor hayvonlar bosh sonini ko'paytirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hayvonlarning turli kasalliklarini davolash va oldini olishda qo'llanilayotgan preparatlar sifati va samaradorligi bo'yicha kutilayotgan natijani bermayotganligi, sohani barqaror rivojlantirishda arzon va samarali farmakologik vositalarni ishlab chiqishga ehtiyojning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biostimulyatorlar hayvonlar organizmiga kuchli stimulyator sifatida ta'sir etib, hayvonlarda umumiy rezistentlikni oshiradi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi va mahsuldorlikni oshirishi bilan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun biostimulyatorlarni hayvonlar organizmiga ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi², 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi,

1 Сагалаков Я.М., Усова И.А. Применение стимулирующих препаратов при воспроизводстве овец // Вестник КрасГАУ. – 2014. - №9. - С. 92-95.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.

2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chorvachilik xo‘jaliklarida turli biostimulyatorlardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bir qancha mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar xorijiy mualliflar xususan, И.Е.Мозгов, В.Ю.Лобков, Д.Э.Мурашкин, Я.М.Сагалаков, И.А.Усова, Р.С.Исхаков, В.И.Дулнев, В.В.Поспелова, А.В.Малковлар, Respublikamiz olimlaridan Q.N.Norboyev, B.B.Bakirov, N.B.Ro‘ziqulov, D.D.Aliyev, T.T.Xatamov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, biostimulyatorlarni qorako‘l qo‘ylari organizmiga va ularning mahsuldorligiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, Respublikamizning qorako‘lchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako‘l qo‘ylari organizmiga farmakologik ta‘siri hamda ulardan olinadigan go‘sh t mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari» kafedrasining «Parranda va quyonlar kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar yaratish» mavzusidagi PZ-2020123121–raqamli innovatsion loyiha (2021-2023-yy.) doirasida hamda qorako‘lchilik fermer xo‘jaliklari bilan tuzilgan shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako‘l qo‘ylari organizmiga farmakologik ta‘sirini o‘rganish hamda ulardan olinadigan go‘sh tini veterinariya sanitariya jihatidan baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Miosta-H preparati zaharlilik darajasini laboratoriya hayvonlarida aniqlash

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining qorako‘l qo‘zilar o‘sish va rivojlanishiga hamda fiziologik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini ilmiy asoslash;

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining qorako‘l qo‘ylar qonining morfologik hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash;

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlari qo‘llanilgan qorako‘l qo‘ylari go‘sh tining sifatiga veterinariya-sanitariya jihatidan baho berish;

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining qorako'lichilik sohasida samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va fermer xo'jaliklariga joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyatining qo'ychilik fermer xo'jaliklaridagi qorako'l qo'zilar, ulardan olingan qon namunalari, Miosta-H, Butasal va Nukleozeptid preparatlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti qorako'l qo'ylarini klinik va gematologik ko'rsatkichlari, Miosta-H, Butasal, Nukleozeptid preparatlari va laboratoriya hayvonlari (oq sichqon) hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda klinik, morfologik, biokimyoviy, organoleptik, fizika-kimyoviy, olingan raqamli ma'lumotlarning statistik va biometrik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Miosta-H preparatidan turli dozalarda (4, 8, 16, 24, 32, 40 mkl/bosh) qo'llanilganda oq sichqonlar organizmiga zaharli ta'sir ko'rsatmasligi tajribalarda isbotlandi.

Biostimulyatorlarni bir-biri bilan qiyoslaganda, qorako'l qo'zilarining o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'siri etishi, jumladan o'rtacha tirik vazni Miosta-H preparati qo'llanilgan guruhda 23,75% ga, Butasal qo'llanilganda 20,90% ga va Nukleozeptid qo'llanilganda esa 21,85% ga oshishi aniqlandi;

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlarini qorako'l qo'ylar qonining morfobiokimyoviy (eritrotsit, gemoglobin umumiy oqsil, albumin, globulin, glyukoza) ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishi tajribalarda isbotlandi;

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlari qo'llanilgan qorako'l qo'ylarda go'shtning sifati veterinariya-sanitariya jihatidan baholaganda uning sifati va oziqaviylik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etmasligi ilmiy asoslandi;

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlarini qorako'lichilik sohasida samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va fermer xo'jaliklariga joriy etildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlarini farmakologik xususiyatlari (farmakodinamika, farmakokinetika) o'rganilgan.

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlari qo'llanilgan qorako'l qo'ylari qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishi tajribalarda aniqlangan;

Butasal preparati qo'llanilgan birinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,09 kg (20,90%) ga, Miosta-H preparati qo'llanilgan ikkinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,21 kg (23,75%) ga, Nukleozeptid preparati qo'llanilgan uchinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,13 kg (21,85%) ga yuqori bo'lishiga erishilgan.

Butasal, Miosta-H, Nukleozeptid preparatlarini qorako'l qo'ylariga qo'llash orqali ulardan veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqli go'sht mahsulotlari olish mumkinligi tajribalarda isbotlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, biokimyoviy, morfologik usullardan foydalanib boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov berilganligi, shuningdek, olingan natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi va tadqiqotlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini mushak orasiga har xil miqdorlarda yuborilishi natijasida qorako'l qo'ylari organizmida moddalar almashinuvi jarayonlarini me'yorlashtirishi, qonning ayrim morfo-biokimyoviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishi, qorako'l qo'ylari go'shtining sifati veterinariya-sanitariya jihatidan ijobiy baholanganligi bo'yicha olingan ma'lumotlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako'l qo'zilarini o'sish va rivojlanishini yaxshilashi, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarga chidamligini oshirishi bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining qorako'l qo'ylar organizmiga qiyosiy ta'siri" bo'yicha olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

"Biostimulyatorlarning qorako'l qo'ylar organizmiga farmakologik ta'siri" nomli tavsiyanoma tasdiqlangan va veterinariya amaliyotiga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 3-yanvardagi 02/23-01-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash natijasida Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako'l qo'zilarini organizmiga qiyosiy ta'siri aniqlangan bunda Miosta-H preparatini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi 1 bosh qo'zi hisobiga 2627310 so'mni, sarflangan 1 so'mga xarajatlar qoplami 5,02 so'mni tashkil etgan;

Tadqiqotlarda Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako'l qo'zilarini organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi me'yor va miqdorlari aniqlanib, olingan natijalar Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qorako'lchilik xo'jaliklarida joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 3-yanvardagi 02/23-01-son ma'lumotnomasi). Natijada Butasal preparati qo'llanilgan birinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,09 kg (20,90%) ga, Miosta-H preparati qo'llanilgan ikkinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,21 kg (23,75%) ga, Nukleozeptid preparati qo'llanilgan uchinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 60-kunida 5,13 kg (21,85%) ga yuqori bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 9 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika ilmiy jurnallarida, 4 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, «Biostimulyatorlarning umumiy tavsifi» deb nomlangan birinchi qismida biogenstimulyatorlarni olish manbaalari, farmakologik ta'sir xususiyatlariga oid dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. «Biogen stimulyatorlarning (to'qima preparatlari) farmakologik xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi qismida olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili asosida biogen stimulyatorlarning farmakologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning tadqiqot natijalari keltirilgan.

«Turli guruhga kiruvchi biostimulyatorlarni hayvonlar va parrandalarning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri» deb nomlangan uchinchi qismda tarkibida turli guruhga kiruvchi biostimulyatorlarni hayvonlar va parrandalar organizmiga farmakologik ta'sir xususiyatlari to'g'risida mahalliy va xorijiy olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risida ma'lumot beruvchi keng ko'lamli materiallar keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakuniy xulosasida hayvonlar va parrandalar organizmiga biostimulyatorlarni ta'siri, ularning me'yori va miqdorlari haqida ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar materiallari va uslublari, tadqiqotlar, obyekti va predmeti**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Asosiy ilmiy tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Tim-Ag'ron chorvadorlari", "Saxoba ota qorako'l nasl" MChJ qo'ychilik xo'jaliklariga qarashli qorako'l qo'ylarida va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariyasida, laboratoriya tekshirishlari Samarqand shahridagi "Avetsina" xususiy klinikasi

laboratoriyasida laboratoriyasida hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Farmakologiya va toksikologiya kafedrası va ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasining gematologiya laboratoriyalarida o'tkazildi.

Tajriba davomida qo'zilar qonining morfologik ko'rsatkichlari BIOBASE BK6190 gematologik analizatori yordamida hamda qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlari esa yarim avtomat Mindray BA-88A analizatori yordamida aniqlandi. Tajribalar 2020-2024-yillar davomida amalga oshirilgan.

Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarining farmakologik ta'sir xususiyatlarini aniqlash uchun 4 bosqichda ilmiy va ilmiy-xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Birinci bosqich tajribalarimiz Miosta-H preparatining laboratoriya hayvonlari organizmiga ta'siridagi zaharlilik va xavflilik darajasini aniqlash maqsadida tajriba tadqiqotlarimiz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Farmakologiya va toksikologiya kafedrası laboratoriyasida o'tkazildi. Og'irligi o'rtacha 20 gramm bo'lgan 36 ta oq sichqonlarda olib borildi. Miosta-H preparatning zaharlilik va xavflilik darajasi umum qabul qilingan L.I.Medved (1974) tasnifiga muvofiq aniqlandi. Tajribadagi sichqonlar organizmidagi patologoanatomik o'zgarishlar umum qabul qilingan yorib ko'rish usulida veterinariya fanlari nomzodi, dotsent B.A.Kuliyev bilan xamkorlikda o'tkazildi. Tajribadagi sichqonlar yashovchanligi, xarakatchanligi, suv va ozuqalarni iste'mol qilishi, kunlik nazoratda bo'ldi. Tajriba davomida sichqonlarda yuzaga kelgan barcha o'zgarishlar kunlik qayd qilib borildi. Tajriba 14 kun mobaynida olib borildi. Dastlab tajribadagi oq sichqonlar 6 boshdan 6 ta guruhga ajratildi. Birinci guruh oq sichqonlarga 4 mkl/bosh, ikkinchi guruh oq sichqonlarga -8 mkl/bosh, uchunchi guruh oq sichqonlarga – 16 mkl/bosh, turtinchi guruh oq sichqonlarga- 24 mkl/bosh, beshinchi guruh oq sichqonlarga – 32 mkl/bosh va oltinchi guruh oq sichqonlariga esa 40 mkl/bosh miqdorida preparatdan mushak orasiga in'eksiya qilindi.

Ikkinchi bosqich tajribalar «Miosta-H» preparatini farmakodinamikasini aniqlash maqsadida jami 12 bosh 4-5 oylik qorako'l qo'zilar tanlab olindi va tadqiqotlar o'tkazildi. Qorako'l qo'zilar 4 guruhga ajratilib, har bir guruhda 3 boshdan "o'xshash juftliklar" asosida tanlab olinib, universitet vivariyasida o'tkazildi. Birinci guruh qorako'l qo'zilariga Miosta-H preparatidan bir marta 0,5 ml/bosh miqdorda, ikkinchi guruh qo'zilariga 1,0 ml/bosh miqdorda, uchunchi guruh qo'zilariga 1,5 ml/bosh miqdorda, to'rtinchi guruh qo'zilariga 2,0 ml/bosh miqdorda muskul orasiga yuborildi. Miosta-H preparatini bir marta turli miqdorlarda qo'llanilgan qo'zilar qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash maqsadida 3, 6, 12, 24 soatda hamda 3, 7, 14, 21, 28 kunlari qon namunalari olindi va laboratoriyada tekshirildi.

Qon ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha tekshirishlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Farmakologiya va toksikologiya kafedrası va Hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari kafedrası laboratoriyalarida, Samarqand shahridagi "Avetsina" xususiy klinikasi

laboratoriyasida o'tkazildi. Qorako'l qo'zilaridan olingan qon namunalarida eritrotsitlar va leykotsitlar soni, gemoglobin miqdori, BIOBASE BK6190 gematologik analizatori yordamida hamda qonning biokimyoviy ko'rsatkichlaridan esa yarim avtomat Mindray BA-88A analizatori yordamida aniqlandi.

Uchinchi bosqich tajribalari Miosta-H preparatini qorako'l qo'zilarining klinik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash maqsadida olib borilgan tajribalarimiz Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Tim-Ag'ron chorvadorlari", "Saxoba ota qorako'l nasl" MChJ xo'jaliklarida boqilayotgan qorako'l qo'zilarida olib borildi. Tajribalar uchun xo'jaliklardan nisbatan zaif bo'lgan 20 bosh 4-5 oylik qorako'l qo'zilar tanlab olindi. Qo'zilar 4 guruhga, har bir guruhda 5 boshdan qo'zilar "o'xshash juftliklar" asosida tanlab olingan holda xo'jaliklar sharoitida tajribalar o'tkazildi.

Nurobod tumanidagi "Tim-Ag'ron chorvadorlari" va "Saxoba ota qorako'l nasl" MChJ xo'jaligida olib borilgan tajribalardagi nazorat guruhga preparat qo'llanilmadi, birinchi tajriba guruhdagi qo'zilarga Butasal preparati har 10 kun bir marta 3 ml dan muskul orasiga ineksiya qilindi. Ikkinchi tajriba guruhi qo'zilariga Miosta-H preparatidan bir oyda bir marta 1 ml dan muskul orasiga ineksiya qilindi. Uchinchi tajriba guruhidagi qo'zilarga Nukleopeptid preparatidan 3 ml dan 3 kun davomida bir marta va 15-kun bir marta mushak orasiga ineksiya qilindi va preparat yuborishdan oldingi natijalar 15, 30, 45, 60 kundan so'ng olingan natijalar bilan taqqoslab xulosa qilinadi.

To'rtinchi bosqich tajribalari Miosta-H preparati qo'llanilgan qorako'l qo'ylarining go'shti sifat va miqdoriy o'zgarishlarini aniqlash maqsadida veterinariya-sanitariya ekspertizasi amaliyotida qabul qilingan usullardan foydalanildi. Preparati qo'llanilgan tajribadagi qorako'l qo'ylari majburiy so'yildi va so'yishdan keyingi olingan mahsulotlarning veterinariya-sanitariya ekspertizasi "O'zstandart" talablariga muvofiq olib borildi. Qorako'l qo'ylar go'shti sifatini organoleptik (go'sht mahsulotlari qonining chiqib ketishi darajasi, mushak to'qimasi konsistensiyasi va rangi, yangi so'yilgan go'sht hidi, qaynatilgan go'sht va buloni ta'mi) va biokimyoviy (pH, kislotalilik-oksidlanish koeffitsienti, amino-ammiakli azot miqdori, peroksidazaga sinamalar, formalin va rangli-oksidlovchi reaksiyalar) asosida tekshirildi.

Organoleptik tekshirishlar davomida jigar, yurak, buyraklar, o'pka va boshqa ichki organlar, shuningdek tana go'shti holati o'rganildi. Tekshirishlar davomida qorako'l qo'ylari tanasining qonsizlanish darajasi, uning tashqi ko'rinishi, rangi, konsistensiyasi, hidi, hamda go'sht yog'ining holati tekshirildi.

Dissertatsiyaning **«Butasal, Nukleopeptid va Miosta-H preparatlarini farmakologik samaradorligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobi to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "Tajribada qo'llanilgan preparatlarni farmakologik tavsifi" deb nomlangan bo'lib, bu qismda tajribalarda qo'llanilgan Butasal, Nukleopeptid va Miosta-H preparatlarini tarkibi, dozalari va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Shu bobning ikkinchi qismi «Miosta-H preparatining zaharlilik va xavflilik darajasini aniqlash» deb nomlanib, bu qismda og'irligi o'rtacha 20 gramm bo'lgan

36 ta oq sichqonlarda olib borildi. Dastlab tajribadagi oq sichqonlar 6 boshdan 6 ta guruhga ajratildi. Birinchi guruh oq sichqonlarga 4 mkl/bosh, ikkinchi guruh oq sichqonlarga -8 mkl/bosh, uchunchi guruh oq sichqonlarga – 16 mkl/bosh, turtinchi guruh oq sichqonlarga -24 mkl/bosh, beshinchi guruh oq sichqonlarga – 32 mkl/bosh va oltinchi guruh oq sichqonlariga esa 40 mkl/bosh miqdorida preparatdan mushak orasiga in'eksiya qilindi.

1-jadval

Miosta-H preparatining zaharlilik va xavfsizlik darajasi (n=36)

Tajriba o'tkazilgan laboratoriya hayvoni	Tajriba guruhlari	Preparatni yuborish dozasi, mkl/bosh	Tajribadan 14 kundan o'tgandan keyin		
			Tirik qolgan	O'lgan	Natija, %
Oq sichqon	1-tajriba	4	6	-	100
	2-tajriba	8	6	-	100
	3-tajriba	16	6	-	100
	4-tajriba	24	6	-	100
	5-tajriba	32	6	-	100
	6-tajriba	40	6	-	100


Tajribalarimiz davomida Miosta-H preparatining turli dozalarida 4, 8, 16, 24, 32, 40 mkl/bosh da qo'llanilgan barcha guruhlardagi oq sichqonlarda hech qanaqa zaharlanishning klinik belgilari kuzatilmadi. Barcha guruhlardagi oq sichqonlar tajriba davomida xarakatchan bo'lib, berilgan suv hamda ozuqani doimiy ravishda ixtiyoriy qabul qilganligi kuzatildi.

Shu bilan birgalikda tajriba guruhlaridagi oq sichqonlardan ajratib olinib, ular ichki organlari va to'qimalaridagi patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash maqsadida yorib ko'rildi. Natijada tajribadagi oq sichqonlar ichki organlari va to'qimalarida xususan, jigarda, yurak to'qimalarida, o'pka, taloq, buyraklar va ichaklarda sezilarli patologoanatomik o'zgarishlar bo'lmaganligi kuzatildi.


Bu tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Miosta-H preparatining zaharlilik va xavfsizlik darajasi bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda ushbu preparatni oq sichqonlar organizmi uchun kam zaharli ya'ni L.I.Medved (1974) tasnifiga muvofiq 4 sinfga mansub bo'lgan preparat ekanligi aniqlandi.

Shu bobning uchinchi qismi Miosta-H preparatini qorako'l qo'ylari organizmiga farmakodinamik ta'siri» deb nomlangan bo'lib, tajribalarimiz Miosta-H preparatini farmakodinamik ta'sirini aniqlash maqsadida jami 12 bosh 4-5 oylik qorako'l qo'zilar tanlab olindi va tadqiqotlar o'tkazildi. Qo'zilar 4 guruhga ajratilib har bir guruhda 3 boshdan qo'zilar "o'xshash juftliklar" asosida tanlab olinib, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariyasida o'tkazildi. Birinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilariga Miosta-H preparatidan bir oyda bir marta 0,5 ml/bosh miqdorda, ikkinchi tajriba guruhi qo'zilariga 1,0 ml/bosh miqdorda, uchunchi tajriba guruhi qo'zilariga 1,5 ml/bosh miqdorda, to'rtinchi tajriba guruhi

qoʻzilariga 2,0 ml/bosh miqdorda muskul orasiga yuborildi. Miosta-H preparatini bir marta turli miqdorlarda qoʻllanilgan qoʻzilar qonining morfologik va biokimyoviy koʻrsatkichlariga taʼsirini aniqlash maqsadida 3, 6, 12, 24 soatda hamda 3, 7, 14, 21, 28 kunlari qon namunalari olindi va laboratoriyada tekshirildi.




1-rasm. Miosta-H preparatini qoʻzilar qonining eritrotsitlar soniga taʼsiri (mln/mkl)



2-rasm. Miosta-H preparatini qoʻzilar qonining gemoglobinlar miqdoriga taʼsiri (g/l)


Tajribaning oxiriga kelib qonning morfologik ko'rsatkichlaridan (28 kundan so'ng) birinchi tajriba guruhi qo'zilar qonida eritrotsitlar soni dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 0,70 mln/mklga yoki 8,28% ga ko'payganligi, leykotsitlar soni -0,07 mln/mklga yoki 0,97% ga kamayganligi va gemoglobinlar miqdori 9,34 g/l yoki 9,61% ga ko'payganligi, ikkinchi tajriba guruhi qo'zilarida esa eritrotsitlar soni dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 1,42 mln/mklga yoki 16,84% ga ko'payganligi, leykotsitlar soni -0,19 mln/mklga yoki 2,64% ga kamayganligi va gemoglobin miqdori 16,30 g/l yoki 16,78% ga ko'payganligi, uchinchi tajriba guruhi qo'zilarida eritrotsitlar soni dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 1,37 mln/mklga yoki 16,23% ga ko'payganligi, leykotsitlar soni -0,18 mln/mklga yoki 2,50% ga kamayganligi va gemoglobin miqdori 15,60 g/l yoki 16,05% ga ko'payganligi hamda to'rtinchi tajriba guruhi qo'zilarida eritrotsitlar soni dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 1,36 mln/mklga yoki 16,07% ga ko'payganligi, leykotsitlar soni -0,18 mln/mklga yoki 2,50% ga kamayganligi va gemoglobinlar miqdori 15,60 g/l yoki 16,06% ga ko'payganligi aniqlandi.




3-rasm. Miosta-H preparatining qo'zilar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdoriga ta'siri (g/l)

Tajribaning oxiriga kelib qonning biokimyoviy ko'rsatkichlaridan (28 kundan so'ng) birinchi tajriba guruhi qo'zilar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 3,9 g/l yoki 5,85% ga ko'payganligi, albuminlar miqdori 2,20% ga ko'payganligi va globulinlar miqdori 3,37% ga ko'payganligi, ikkinchi tajriba guruhi qo'zilarida esa umumiy oqsil miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 5,3 g/l yoki 7,96% ga ko'payganligi, albuminlar miqdori 13,66% ga ko'payganligi va globulinlar miqdori 7,91% ga ko'payganligi, uchinchi tajriba guruhi qo'zilarida umumiy oqsil miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 5,2 g/l yoki 7,81% ga ko'payganligi,

albuminlar miqdori 13,15% ga ko'payganligi va globulinlar miqdori 7,91% ga ko'payganligi, hamda to'rtinchi tajriba guruhi qo'zilarida umumiy oqsil miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 5,2 g/l yoki 7,83% ga ko'payganligi, albuminlar miqdori 13,49% ga ko'payganligi va globulinlar miqdori 7,86% ga ko'payganligi aniqlandi.



4-rasm. Miosta-H preparatining qo'zilar qon zardobidagi albuminlar miqdoriga ta'siri (g/%)




5-rasm. Miosta-H preparatining qo'zilar qon zardobidagi globulinlar miqdoriga ta'siri (g/%)

Yuqoridagi barcha morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, Miosta-H preparatini yuborishdan oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan 1 ml, 1,5 ml, 2 ml miqdorlarda qo'llanilganda qorako'l qo'ylari organizmiga farmakostimullovchi ta'siri yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Shu bobning to'rtinchi qismi «Butasal, Nukleozeptid va Miosta-H preparatlarini qorako'l qo'zilarining o'sish va rivojlanishiga ta'siri» deb nomlanib, bu qismda Qorako'l qo'zilarining o'sishi va rivojlanishi uchun o'tkazilgan tajribalarimiz Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Tim-Ag'ron chorvadorlari", "Saxoba ota qorako'l nasl" MChJ xo'jaliklarida boqilayotgan qorako'l qo'zilarida, Farmakologiya va toksikologiya kafedrasida hamda Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasida laboratoriyasida olib borilgan. Tajribalar uchun jami 12 bosh 4-5 oylik qorako'l qo'zilar ajratib olindi va 3 boshdan 4 ta guruhga bo'lindi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarimiz tajriba guruhi hamda to'rtinchi nazorat guruhi sifatida ajratildi.

Birinchi tajriba guruhiga Niderlandiya davlatining "Interchemiye" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Butasal preparatidan har 10 kun bir marta 3 ml dan muskul orasiga ine'ksiya qilindi. Ikkinchi tajriba guruhiga "Miosta Group" kompaniyasining Miosta-H preparatidan bir oyda bir marta 1 ml dan muskul orasiga ine'ksiya qilindi. Uchinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilariga esa Nukleozeptid preparatidan 3 ml dan 3 kun davomida bir marta va 15-kundan keyin yana bir marta mushak orasiga ine'ksiya qilindi. To'rtinchi nazorat guruhiga hech qanday preparat qo'llanilmadi. Barcha guruhlar xo'jalik ratsioni asosida oziqlantirilib borildi.



6-rasm. Qorako'l qo'zilarining o'rtacha tirik vazni dinamikasi, kg

Miosta-H preparati qo'llanilgan ikkinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 15-kunida 930 gramm

(19,17%) ga, 30-kunida 3,24 kg (22,72%) ga, 45-kuni 4,35 kg (23,22%) ga, 60-kuni esa 5,21 kg (23,75%) ga yuqoriligi aniqlandi.

Nukleopeptid preparati qo'llanilgan uchinchi tajriba guruhi qorako'l qo'zilarining nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tirik vazni tajribaning 15-kunida 870 gramm (19,17%) ga, 30-kunida 3,2 kg (21,21 %) ga, 45-kuni 4,28 kg (21,24%) ga, 60-kuni esa 5,13 kg (21,85%) ga yuqoriligi aniqlandi.

Qorako'l qo'zilarining o'sishi va rivojlanishiga ta'siri Butasal va Miosta-H, Nukleopeptid preparatlari qo'llanilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi tajriba guruhlarida to'rtinchi nazorat guruhlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi 6-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda qo'llanilgan Miosta-H preparatlari qorako'l qo'zilar organizmiga farmakostimullovchi ta'sirlari yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tekshirishlarning oxiriga kelib, Butasal preparati qo'llanilgan 1-tajriba guruhidagi qo'zilarining qondagi eritrotsitlarning soni o'rtacha $8,81 \pm 2,8$ mln/mkl dan $8,87 \pm 1,2$ mln/mkg gacha, leykotsitlar - $7,65 \pm 0,21$ ming/mkl dan $7,73 \pm 0,14$ ming/mkg gacha, gemoglobin- $126,0 \pm 1,04$ g/l dan $127,2 \pm 1,3$ gacha, Miosta-H preparati qo'llanilgan 2-tajriba guruhida eritrotsitlar $8,29 \pm 0,53$ mln/mkg dan $9,72 \pm 0,33$ mln/mkg gacha, leykotsitlar - $8,50 \pm 0,22$ ming/mkl dan $9,15 \pm 0,27$ ming/mkg gacha, gemoglobin- $118,2 \pm 0,83$ g/l dan $127,3 \pm 0,42$ gacha, Nukleopeptid preparati qo'llanilgan 3-tajriba guruhida eritrotsitlar $8,44 \pm 0,50$ mln/mkg dan $9,88 \pm 0,35$ mln/mkl gacha, leykotsitlar - $7,27 \pm 0,32$ ming/mkl dan $7,45 \pm 0,46$ ming/mkg gacha, gemoglobin $114,3 \pm 0,59$ g/l dan $129,1 \pm 0,24$ gacha o'zgarganligi hamda nazorat guruhidan farqli ravishda o'sib borganligi aniqlandi.

